

CONFLICTS IN THE CONTEXT OF "PARENTS AND CHILDREN" RELATIONS AND THEIR SOCIO-PSYCHOLOGICAL DETERMINANTS

Iroda Rasulova

Shahrisabz State Pedagogical Institute v. b Assoc

E-mail rasulova.iroda86@bk.ru

Abstract

It is known that conflicts in the context of parent-child relations and their social psychological determinants are manifested through child neglect, physical, emotional (spiritual) and sexual abuse. Therefore, the study of the relationship between parents and children in family relations shows the relevance of our research. "Cruelty" or "...child abuse", "any form of physical or emotional negative treatment that causes or is likely to cause physical harm to the child's health, life, development and capacity, sexual abuse, careless or careless treatment, commercial or other exploitation".

Key words: Oppression, violence, emotional abuse, sexual abuse, determinant, conflict, family, value, couple, relationship, risk, phobia, factor.

КОНФЛИКТЫ В КОНТЕКСТЕ ОТНОШЕНИЙ «РОДИТЕЛИ И ДЕТИ» И ИХ СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ДЕТЕРМИНАНТЫ

Ирода Расулова

Шахрисабзский государственный педагогический институт с.б. доц.

Электронная почта rasulova.iroda86@bk.ru

Аннотация

Известно, что конфликты в контексте детско-родительских отношений и их социально-психологических детерминант проявляются через пренебрежение детьми, физическое, эмоциональное (духовное) и сексуальное насилие. Поэтому изучение взаимоотношений родителей и детей в семейных отношениях показывает актуальность нашего исследования. «Жестокость» или «...жестокое обращение с детьми», «любая форма физического или эмоционального негативного обращения, которая причиняет или может причинить физический вред здоровью, жизни, развитию и способностям ребенка, сексуальное насилие, небрежное или небрежное обращение, реклама или другая эксплуатация».

Ключевые слова: Угнетение, насилие, эмоциональное насилие, сексуальное насилие, детерминанта, конфликт, семья, ценность, пара, отношения, риск, фобия, фактор.

“Ota-ona va farzandlar” munosabatlari kontekstidagi nizolar va ularning ijtimoiy-psixologik determinantlari

Iroda Rasulova

Shahrisabz davlat pedagogika instituti v.b dots

E-mail rasulova.iroda86@bk.ru

Annotasiya

Ma'lumki ota-ona va farzandlar munosabatlari konkeksidagi nizolar va ularning ijtimoiy psixologik determinantlari bolaga nisbatan beparvolik, unga jismoniy, emotsional (ruhiy) va jinsiy zo'rlash ishlatish orqali namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham oilaviy munosabatlarda ota-ona va farzandlar munosabatlarini o'rganish ko'rib chiqish bizning tadqiqotlarimizning dolzarbligini ko'rsatadi. “Zulm” yoki “...bolalar bilan qo'pol munosabatda bo'lish”, “bolaning sog'ligiga, yashashiga, rivojlanishi va layoqatiga amaliy zarar keltiradigan yoki zarar yetkazishi mumkin bo'lgan barcha turdagi jismoniy yoki emotsional salbiy munosabat, jinsiy zulm, ehtiyotsiz yoki befarq munosabat, kommersiya yoki boshqa maqsadlardagi ekspluatatsiya”ni anglatadi.

Kalit so'zlar: Zulm, zo'ravonlik, emotsional zo'rlash, jinsiy zo'rlash, determinant, nizo, oila, qadriyat, er-xotin, munosabat, xavf, fobiya, omil.

Kirish. Jahon xalqlari miqyosida mustahkam oilaviy munosabatlarni barpo etish farzandlarni komil inson qilib voyaga yetkazish jamiyat oldida turgan dolzarb masalalardan biridir. Ma'lumki oilada bolalarga nisbatan zo'ravonliklarning sodir bo'lish holatlari, afsus hammamizni tashvishga soladi.

2021-yil 19-may kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Zo'rlik ishlatishdan jabr ko'rgan xotin-qizlarni rehabilitatsiya qilishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-5116-sonli Qarori qabul qilindi. Unga ko'ra:

Oilaviy zo'ravonlikdan eng ko'p aziyat chekadigan oila a'zolari bolalardir. Ular zo'ravonlikning to'g'ridan-to'g'ri qurboni bo'lishi bilan birga, onaga nisbatan qo'llanayotgan xatti-harakatlarning ma'lum qismini o'zlashtirishi xavfi ham bor. Bunday oilada bolaning reallikni qabul qilishi buziladi, zero u uchun haqorat va kaltaklar asta-sekin normal holatga aylanib boradi. Katta bo'lgach uning o'zi ham ana shunday zo'ravonlik xatti-harakatlarini qo'llashi mumkin yoki shunchaki bunday “yuk”ni ko'tara olmay ko'pincha o'z joniga qasd qilishi mumkin.

Bolalarga nisbatan zo'ravonlik va oiladagi zo'ravonlik to'g'risidagi adabiyotlarda keltirilishicha, ba'zi insonlar bolaligidan oilaviy zo'ravonlik guvohi bo'lganligi sababli zo'ravonlikka moyil bo'lishlari, har qanday zo'ravonlikni oddiy holat sifatida qabul qilishlari mumkin (masalan, bolaligida yomon munosabatda bo'lgan odamlar, o'z navbatida, o'z farzandlariga yomon munosabatda bo'lishgan; ota-onalar bilan bo'lgan munosabatlar bu hatti-harakatni kattalardagi yaqin munosabatlarida takrorlashgan). Zero zo'ravonlik holatining avlodlararo uzatilishini ijtimoiy tajriba va kuzatuvlarda o'z tasdig'ini topgan.

Bunday holatlar ko'proq muammoli vaziyatga tushib qolgan oilalarda ro'y beradi.

Zo'ravonlik holatlari sodir bo'lishiga sabab bo'luvchi vaziyatlar:

1. Er o'z oilasini moddiy va ma'naviy jihatdan boshqara olmasligi;

2. Oila boshlig'ining spirtli ichimlikka, narkotik moddalarni iste'mol qilishga berilganligi;

3. Ayollarning o'z umr yo'ldoshlariga nisbatan qo'pol munosabatda bo'lishi, hiyonatkorligi, oilada ayollik burchini his qilmasligi;

4. Er-xotin o'rtasida o'zaro hurmatning yo'qligi, muomala madaniyatini bilmasliklari.

Oilada farzandga nisbatan zo'ravonliklar ota-onalarning o'quvsizligi, bolaga nisbatan beparvoligi, tarbiyalashda jazo usulini qo'llashga o'rganganliklari oqibatida sodir bo'ladi. Be-parvolik ba'zilarga unchalik yomon tuyulmasligi mumkin, lekin aslida yomon holatlar, fojealar, qotilliklarga sabab bo'lishi mumkin. Psixologiyaga doir tadqiqotlarda zo'ravonliklarning natijasi – bolada qo'rqqulik, ruhiy tushkunlik – beparvolik paydo bo'ladi, bularning natijasi esa yomonlikka – toshbag'irlikka, qahri qattiqlikka, odam o'ldirishga, qotillikka olib borishi mumkin. Bunga sabab xavf omili ota-onalarning bolaga nisbatan zo'ravonlik ishlatishiga olib keluvchi ularning ijtimoiy izolyatsiyalanganligi hamda qadriyatlar tizimlari ekanligi aniqlanganligidir.

BMT bolalar bo'yicha ma'lumotlariga ko'ra, oiladagi zo'ravonlik – bu yuqumli illat ekan. Bolalarga qarshi zo'ravonlikning ba'zi ko'rinishlari barcha muhitlar uchun umumiydir. Jismoniy jazo berish hamda shavqatsiz yoki tahqirlovchi jazolashning boshqa turlari ota-onalar va oilaning boshqa a'zolari tomonidan uylarda, bolalar parvarishi bo'yicha mas'ul shaxslar tomonidan tarbiya muassasalarida, o'qituvchilar tomonidan maktablarda qo'llaniladi va shu bilan birga bolalarga qonun bilan bo'lgan kelishmovchiliklarda singdiriladi.

“Bolalarga nisbatan zulm” tushunchasi butunjahon Sog'liqni Saqlash Tashkiloti tomonidan 1999-yilda taklif etilgan quyidagi ta'rifga tayanadi.

“Zulm” yoki “...bolalar bilan qo'pol munosabatda bo'lish”, “bolaning sog'ligiga, yashashiga, rivojlanishi va layoqatiga amaliy zarar keltiradigan yoki zarar yetkazishi mumkin bo'lgan barcha turdagi jismoniy yoki emotsional salbiy munosabat, jinsiy zulm, ehtiyotsiz yoki befarq munosabat, kommersiya yoki boshqa maqsadlardagi ekspluatatsiya”ni anglatadi.

Xalqaro amaliyotda qabul qilingan “bolaga nisbatan zulm” atamasi o'zida “ehtiyotsiz munosabat” hamda “tashlab qo'yilganlik” tushunchalarini o'zida mujassam etadi.

Yuqoridagi e'tirof etilgan mavjud muammolar butun dunyo miqyosida oilaviy munosabatlarda ota-ona va farzandlar munosabatlari konkeksidagi nizolar oilaning barqarorligini ta'minlashdagi asosiy muammolardan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. O'zbekistonda “Bolalarga nisbatan zulm va ehtiyotsiz munosabat” tushunchasi qonuniy asosga tayanadi.

Bolaga nisbatan zulm – bolaning ixtiyoriga zid ravishda yoki uning ko'makka muhtoj holatidan foydalanib, uning shaxsiy daxlsizlik huquqini buzuvchi jismoniy, jinsiy va ruhiy ta'sir ko'rsatishdir. Mazkur ta'rifga binoan, zulmning jismoniy, jinsiy va ruhiy ko'rinishlari ajratib ko'rsatiladi.

Bolalarga nisbatan sodir etiladigan zo'ravonlik turlariga alohida to'xtalib o'tmoqchimiz:

Jismoniy zo'ravonlik – bolaning qiynalishiga sabab bo'luvchi va uning rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi zo'ravonlik va boshqa noinsoniy hatti-harakatlarning boshqa turlari (jismoniy og'riq yetkazish, urish, tishlash, kuydirish, bolani maqsadli ravishda bo'g'ish yoki

choʻktirish, shuningdek, bolaga zahar va notoʻgʻri dori berish bilan bogʻliq hodisalar).

Jinsiy (seksual) zoʻravonlik – kattalarning jinsiy ehtiyojlarini qondirish uchun bolalardan foydalanish, bolani jinsiy faoliyatga jalb qilish uchun tahdid, kuch va ayyorlikni ishlatish.

Bolalardan pornografik mahsulotlar tayyorlash maqsadida foydalanish, shuningdek, ularga pornografik mahsulotlarni namoyish qilish. Bolalarni fohishabozlikka jalb qilish.

Emotsional zoʻravonlik – bolaning oʻziga hurmat va ishonch hissining yoʻqolishiga sabab boʻluvchi, unga nisbatan doimiy eʼtiborsizlik va bemehrlik, tahdid va ahmoqlik qilishdir. Bolaga yoshiga mos kelmaydigan va bajara olmaydigan talablarni qoʻyish. Kattalar tomonidan yolgʻon ishlatilishi va vaʼdalarning bajarilmasligi, bolada ishonchsizlik uygʻotish.

Ehtiyotsiz munosabat – bolaning uy-joy, oziq-ovqat, kiyim kechak, dori-darmonga boʻlgan ehtiyojlarining qondirilmasligi. Bolani qarovsiz qoldirish.

Ekspluatatsiya – boladan shaxsiy manfaatlari yoʻlida foydalanish – bolalar mehnati, seksual ekspluatatsiya, trafik – (bolalarni ekspluatatsiya maqsadida olib chiqib ketish, sotish) zoʻravonlikka duchor boʻlgan, shuningdek, tashlab qoʻyilgan bolalarning faoliyat yuritishining barcha darajalari – sogʻligi, ongini oʻstirish, xulq-atvorini, jismoniy, emotsional va intellektual rivojlanishining buzilishini qamrab oluvchi turmush tarzi va rivojlanishida jiddiy oʻzgarishlar sodir boʻladi.

Psixologik tadqiqotlardan maʼlumki, agar axloq ijtimoiy normalarni buzsagina uni agressiv axloq deb qaraladi.

L.Berkowitzning (1994) fikricha, ijtimoiy axloq normalari buzilishini unda qatnashuvchi tomonlarning har xil qarashlari aniqlab beradi (masalan, baʼzi bir ota-onalar bola tarbiyasida tan jarohati berishni qoʻllashsa va buni yaxshi taʼsir qiladigan usul deb tushunsalar, boshqa bir toifa ota-onalar bunday yoʻlni qoʻllash mumkin boʻlmaydigan agressiya shakli deb oʻylaydilar).

Shuningdek, R.A.Baron, D.R.Richardsonlar tadqiqotlarida, “qachonki jinoyatchi qochishga urinsa, jinoyatchiga ziyon yetkazish niyatida va maqsadida harakat bajariladi hamda tan jarohati berish meʼyori jamiyatni qoniqtiradi. Va aynan shunday yoʻl tutish koʻpgina mamlakatlarda qonunlashtirilgan. Shunday yoʻl bilan jamiyatda bir qator qonuniy ishlar amalga oshiriladi va bunda hamma ham ushbu yondashuvni maʼqul deb hisoblamasa-da, boshqalar unga rioya qiladilar. Shu jihatdan qaraganda, aniq huquqiy qonun-qoidalar boʻlmaganda qonuniy deb qarash yanayam murakkablashadi

Tadqiqot metodologiyasi.

Oilaviy zoʻravonlik vaziyatiga bolalar jalb qilinishining asosiy uch turini ajratish mumkin:

1. Oʻtkazilgan tadqiqotlar bolaga nisbatan beshafqat munosabat va urning xotiniga boʻlgan zoʻravonlikning oʻzaro bogʻliqligini tasdiqlaydi. Oʻz turmush oʻrtogʻiga boʻlgan tajovuzkor harakatlar, bevosita bolaga ham oʻtkaziladigan zoʻravonlik hisoblanadi.

2. Bolaning yuqorida koʻrsatilgan jalb qilinishi uning zoʻravonlik holatiga bilvosita jalb qilinishi bilan bogʻliq. Bunday vaziyatda bola oiladagi barcha nizolar, janjallarning guvohi boʻladi. Oiladagi muhitdan kelib chiqqan ijtimoiy-psixologik dezadaptatsiya, bolani uydin tashqarida, turli oʻsmirlar guruhlarida taskin topishga majbur qiladi.

3. Boladan qurol sifatida foydalanish uni zoʻravonlik holatiga jalb qilishning bir koʻrinishi hisoblanadi. Odatda, xafa boʻlgan bir oila aʼzosi boshqa oila aʼzosi ustidan hukmronlik oʻrnatish shaklida ifodalanadi. Bolaga nisbatan ham zoʻravonlik ishlatilishi

mumkin, lekin ushbu harakatlarning asosiy maqsadi boshqa oila a'zosini dilini og'ritishdir. Zo'ravonlik tufayli bolaning ruhiyatidagi buzilishlar avvalo quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- emotsional beqarorlik;
- emotsional befarqlik;
- salbiy hissiyotlarning ijobiy hissiyotlardan oshib ketishi.

Emotsional beqarorlik, salbiy va ijobiy hissiyotlar o'rtasidagi keskin og'ishlar tashlab qo'yilgan bolalarga hos bo'lib, yana ularga emotsional befarqlik va depressiya ham xos bo'ladi. Zo'ravonlikka duchor bo'lgan bolalarda salbiy hissiyotlar ijobiyliklaridan yuqori bo'ladi, ijobiy hissiyotlar kamdan kam kuzatiladi. Ularda asosan g'azab, tahlika, qo'rquv, xavfsirash hissiyotlari mavjud bo'ladi. Bunda agar bola o'zida zo'ravonga nisbatan mavjud bo'lgan hissiyotni bostirsa yoki inkor etsa, boladagi g'azab ichkariga yo'naladi va o'zidan nafratlanishga hamda dipressiyaga olib keladi.

Tahlil va natijalar

70-yillarda oilaning ijtimoiy modeli nuqtai nazaridan bolalarga nisbatan zulm va ehtiyotsiz munosabatlarning sababi ota-ona va bola o'rtasidagi munosabatlarning buzilganligida deb qarala boshlandi. Keyingi tadqiqotlarning natijasiga ko'ra, individ oila va jamiyat darajasidagi xavf omillarini aniqladilar va bolalarga nisbatan zo'ravonlikni bitta omil emas balki ularning o'zaro ta'siri keltirib chiqarishini isbotlab berdilar. Ular shuningdek, u yoki bu omilning mavjudligi zo'ravonlik ishlatilayotganligini anglatmasligini, balki uning yuz berish ehtimoli yoki imkoniyati borligini ko'rsatishini ta'kidladilar. Oilasida zo'ravonlik ko'rgan bolalarning 40 foizi keyinchalik o'zlari shunday harakatni amalga oshirishga moyil bo'lib qolishar ekan, hatto o'zlari bevosita zo'ravonlik qurboni bo'lmasalarda, balog'at yoshiga yetgandan keyin, yoki zo'ravonlikka duch keladilar yoki o'zlari shuni sodir etadilar.

Tadqiqotchilarning fikrlariga ko'ra, o'z bolalariga nisbatan jismoniy yoki emotsional (ruhiy) va jinsiy zo'rlik ishlatgan ota-onalarning aksariyati o'zlari ham bolaliklarida mana shu zo'rlikni his qilishgan

Erkak va ayol oilada o'zlariga xolis baho bergan holda bir-birlarini qadrlab, hurmat qilsalar ziddiyatning oldini olib bartaraf etish uchun imkoniyat vujudga keladi. Oiladagi sog'lom ijtimoiy-ma'naviy muhit, xotirjamlik, ibratli munosabat, o'zaro totuvlik bola shaxsining ijobiy xatti-harakatlarida o'z aksini topadi.

Ota-ona yoki bolani tarbiyalayotgan boshqa shaxslar o'z qobiliyatlari va moliyaviy imkoniyatlari doirasida bolaning rivojlanishi uchun zarur bo'lgan turmush sharoitini ta'minlashga asosiy javobgardir. Mana shu xususiyatlar barqaror bo'lgan oilalarda zo'ravonlik holatlari sodir etilmaydi, bolalarga nisbatan hurmatli munosabat qaror topadi.

Z.S. Elovning (2022) ta'kidlashicha, "Insonning shaxs sifatida shakllanishi uning biologik va ijtimoiy omillariga bog'liq ekan. Demak, bolalar xulq-atvorining salbiy tomonga og'ishida ham bevosita o'ziga xos yuqoridagi ikki omilning o'rni bor. Bolaning xulq-atvori ko'pincha o'z oldiga quygan maqsadlari, qiziqishlari, ideallari va e'tiqodlari majmuida yaqqol namoyon bo'ladi. Xulq-atvordagi o'zgarishlar bevosita yosh krizis davrlarining kechishi bilan bog'liq yuz berishi tabiiydir. Shunday qilib boladagi salbiy illatlarni oldini olish va ularni bartaraf etishda quyidagilarga e'tiborni qaratish zarur:

- birinchi o'rinda, har bir yosh davrni o'ziga xos psixologik rivojlanish darajalarini

aniqlab olish lozim.

- ikkinchi o'rinda, bolani tarbiyasidagi sodir bo'layotgan salbiy o'zgarishlarni o'rganib chiqish kerak.

- uchinchi o'rinda, tarbiyasi og'ir bolalarning psixologik rivojlanishini me'yorlashtirishga yo'naltirilgan maxsus tadbirlarni ishlab chiqish lozimdir".

Bolaga nisbatan beparvolik, unga jismoniy, emotsional (ruhiy) va jinsiy zo'rlash ishlatish juda achinarli va dahshatli hodisadir. Bunday ishlar bolalar bilan sodir bo'lmasligiga hech kim kafolat bera olmaydi, lekin hamma vaqt ham har bir vijdonli, hamiyatli inson bu zo'ravonliklarning kelib chiqish sabablarini o'rganishi va kelib chiqishi ma'lum bo'lgan hollarda zudlik bilan kerakli tashkilotlarga xabar berishi, oldini olish uchun chora-tadbirlar qo'llashi kerak bo'ladi. Tegishli mutasaddi tashkilotlarga xabar yetkazish juda ham katta javobgarlikni va to'g'ri yondashish, ma'lumotlarni aniq to'plashni talab qiladi, chunki bola xavfsizligi va butun oilaning farovonligi xavf ostida qolishi mumkin. Ruhiy zo'ravonlik bola hissiyotlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi, natijada bola fe'l-atvorida salbiy o'zgarishlar paydo bo'ladi. Oilada ota-onalar o'rtasidagi ziddiyatli munosabat bolaga nisbatan ruhiy zo'ravonlik sodir bo'lishiga olib keladi.

Ruhiy zo'ravonlik turlari:

1. Bolaning hissiy holatiga yoki xulq-atvoriga haqqoniy yoki taxminiy zararli ta'sir ko'rsatish;

2. Tahdid, qo'rqitish, kamsitish, haqorat qilish, so'kish;

3. Boladan voz kechish;

4. Izolyatsiya, ya'ni qamab qo'yish;

5. Noijtimoiy xatti-harakatlarga jalb qilish va majburlash;

6. Bola bajara olmaydigan oshiqcha talablarni asossiz ravishda qo'yish.

Bolaga nisbatan emotsional (ruhiy) zo'ravonlik sodir etilganligini ushbu belgilarni o'rganish orqali bilib olish mumkin:

1. O'zini past baholash, bola o'zini hech kim yaxshi ko'rmaydigan, keraksiz deb hisoblashi;

2. Bola ota-onasi uni kamsitayotgan tanqid qilayotgan, uydan haydash bilan qo'rqitayotgan deb hisoblaydi;

3. Bola xafa va xayajonlangan;

4. Jismoniy zo'ravonlikni kutmoqda;

5. Nutqiy rivojlanish va tushunishda tutilish;

6. Mantiqiy fikrlay olmaslik, qo'yilgan vazifani hal qila olmasligi sababi va oqibatlarini qidirish;

7. Kattalarga hurmatsizlik va ishonchsizlik;

8. Tengdoshlariga, aka-uka va opa-singillariga nisbatan tajovuzkorlik;

9. Himoya sifatida kattalarning xulq-atvorini hamda mustaqilligini namoyon qilish;

10. O'z joniga qasd qilishga urinish.

11. Unga ko'rsatilayotgan yordamning beg'arazligiga ishonchsizlik;

12. Muvaffaqiyat va xursandchilikni ich-ichidan his qila olmaydi, o'zini yaxshi hayotga loyiq emas deb hisoblaydi.

Emotsional (ruhiy) zo'ravonlik natijasida bolalarda paydo bo'ladigan notinchlik holatlari:

1. Fobiya, ya'ni qo'qqisdan paydo bo'luvchi qo'rquv, ayniqsa qorong'ilikdan,

erkaklardan, notanish kishilardan, alohida hodisa yoki xatti-harakatlardan qoʻrqish;

2. Chuqur va tez-tez yuz beradigan depressiya, qoʻrquv, xavfsirash, ishonchsizlik yoki tajovuzkorlikdan iborat boʻlgan shaxsiy oʻzgarishlar;

3. Duduqlanish, nutqning buzilishi yoki butunlay yoʻqolishi;

4. Kishilar bilan yaqin aloqa oʻrnata olmaslik, bogʻliqlikning buzilishi;

5. Oʻz-oʻziga past baho berish;

6. Aybdorlik, uyalish hissi;

7. Tungi qoʻrquv, uyquning buzilishi;

8. Diqqatni jalb qila olmaslik; “ichimdagini top” boʻlib qolish, ijodiy faollikning buzilishi.

Bolaga nisbatan zoʻravonlikni amalga oshirayotgan ota-onalar yoki tarbiyachilar xulqidagi hususiyatlar:

1. Boladagi jarohatlarni tushuntirishdagi qarama-qarshi fikrlar yoki tushuntirishdan bosh tortish;

2. Tibbiy yordamga kechikib murojaat qilish, baʼzan koʻmak haqidagi tashabbus boshqa shaxslardan chiqadi;

3. Jarohat uchun javobgarlikni bolaning oʻziga agʻdarish;

4. Ota-onalarning jarohat ogʻirligiga mos kelmaydigan reaksiyasi, baʼzan oshiqcha, baʼzan kam;

5. Bolaning taqdiriga befarqlik;

6. Bolaga eʼtiborsizlik, unga hissiy koʻmak bermaslik, erkalamaslik;

7. Ruhiy hayajonlanishning yoki harakteridagi patologiyaning (tajovuzkorlik, hayajonlanish, mos kelmaydigan hatti-harakatlar) xulq atvorda aks etishi;

8. Bola sogʻligiga taalluqli boʻlmagan oʻzining muammolari haqida koʻproq qaygʻurish.

9. Bolaligida ularni jazolashganlari haqida koʻp gapirishi.

Oilada bolalarga nisbatan ruhiy zoʻravonlik sodir boʻlishi sabablari:

1. Oilada sogʻlom muhitning mavjud emasligi.

2. Oilada moddiy yetishmovchilik – oila boshligʻining oilani taʼminlay olmasligi.

3. Er va xotin oʻrtasidagi bir-birini tushunmaslik, qoʻpolliklar.

4. Urush – janjalli holatlar.

5. Erkakning spirtli ichimliklarga, chekishga ruju qoʻyishi.

6. Ayolning yengil tabiatliligi, erni mensimasligi.

7. Farzandlarga nisbatan beparvolik, ularni soʻkish, nohaq jazolashlar.

8. Erning begona ayollar bilan muloqotda boʻlishi.

Oilada ota-onalar tomonidan bolani besabab tergash, soʻkish, notoʻgʻri ayblovlar bolani salbiy tomonga oʻzgarishiga, uydin bezishiga, odamovi boʻlib qolishiga, ruhiy ezilishiga olib keladi.

Ye.P.Tumanovaga (2020) koʻra, “Oiladagi muammo – bolaga nisbatan zoʻravonlik, notoʻgʻri parvarish qilish sharoitlari, chaqaloqning hayoti va sogʻligʻiga qiziqishning yoʻqligi, bolaning normal oilaviy hayot tajribasining etishmasligiga olib keladi”.

Ayrim hollarda (masalan A.Varga tadqiqotlarida, 2014), oilada bolaga nisbatan jismoniy jazolash qoʻllanilmasligi mumkin, lekin ularda ruhiy bosim oʻtkazish, uni butkul nazorat qilish va bolaning fikrini inobatga olmasdan, maktab oʻqituvchisi bilan birgalikda xulqini qoralash. Tashqi tizimlar (tashkilotlar) taʼsiriga tushib, ular bilan birgalikda ish olib

borish, oilada xavotir darajasi bo'lgan hollarda ko'p kuzatiladi. Bunday hollarda, oila a'zolarida o'z mas'uliyatlarini tashqi tizimga (shaxslarga) o'tkazish niyatini paydo bo'ladi. Jamiyatda, zo'ravonlik holatlari birinchi navbatda erkak kishidan kelib chiqadi, degan fikr mavjud. Ammo bolaga nisbatan suitsid xatar avvalo ona va bola o'rtasidagi munosabatlaridan yuzaga keladi. Oilaviy psixoterapevt Anna Varga tomonidan 6 yoshdan 10 yoshgacha bo'lgan bolalarning haqiqiy suitsidal urinishlarining klinik tadqiqoti, bolalar bilan intervyu natijalari bu turdagi harakatlarning sodir bo'lishiga asosan bolaning onasi sababchi ekanligini ko'rsatdi. Bola yordam va najot izlab boradigan, eng ishonchli yaqini uning onasidir. Onaning o'zi bolani tushunmasligi, uni rad qilishi, so'ragan yordamini ko'rsata olmasligi ko'zlagan suitsidal harakatlarini amalga oshirishiga olib keladi.

Xulosa va takliflar. "Ota-ona va farzandlar" munosabatlari kontekstidagi nizolar va ularning ijtimoiy-psixologik determenantlari mavzusini o'rganishga doir ilmiy-nazariy, empirik ma'lumotlarni tizimlashtirish asosida qo'yidagi xulosalarni shakllantirdik:

Umuman olganda, ruhiy zo'ravonliklar oqibatida bolaning sog'ligi yomonlashishi, qo'rqqoq yoki bemehr, toshbag'ir bo'lib qolishi mumkin. Bu esa kelgusida bola tomonidan jinoyatlar qilinishiga, tajovuzkorlik holatlariga sabab bo'ladi hamda zo'ravonlikka moyil xulq-atvor shakllanishiga ta'sir etuvchi omil sifatida baholanadi.

1. Bolalar xulq-atvorining salbiy tomonga og'ishida bevosita biologik va ijtimoiy omilning o'rni o'ziga xos hisoblanadi. Bunda har bir xulqi og'ishgan bolaning xulq-atvordagi o'zgarishlar bevosita yosh krizis davrlarining kechishi bilan bog'liq yuz berishi tabiiydir.

2. Oiladagi sodir etiladigan psixik zo'ravonlik, odatda, jismoniy zo'ravonlik bilan birgalikda sodir etiladi hamda muammoni "oila huquqi", "oila psixologiyasi", "kriminologiya" sohalarini tadqiqotchilari tomonidan ham o'rganilishi maqsadga muvofiq sanaladi.

3. Zo'ravonlik oila turmush munosabatlari "ota-ona va farzandlar munosabatlari doirasida insonning ixtiyoriga zid ravishda sodir etilib, "jismoniy kaltaklash" (urish, zo'rash, badanga turli darajada tan jarohati yetkazish) va "ruhiy zo'ravonlik" (tuhmat yoki haqorat qilish, sha'ni va qadr-qimmatini tahqirlash, ustidan kulish, jismoniy zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish) kabi ikki shakli ko'rinishida bo'ladi.

3. Hozirgi murakab va tahlikali zamonda milliy o'zligimiz, azaliy qadriyatlarimizga yot va begona bo'lgan turli xurujlarning ta'siri oilalarga, ayniqsa yoshlarning ongi va qalbini egallash va zaharlashga qaratilganligi bilan dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan, oiladagi zo'ravonlikning sabab va sharoitlarini tadqiq etish muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida" Qonuni // <https://lex.uz/docs/4494709>
2. Шомуротова Н.Н. Оилавий зўравонликнинг ижтимоий психологик хатарлари // Оила институтини мустахкамлашнинг долзарб масалалари: миллий ва хорижий тажриба // "Маҳалла ва оила" илмий-тадқиқот институти. – Тошкент, 2021. – 224-227-бетлар.
3. Туманова Е.П. Опыт скалолазания как средство профилактики девиантного поведения // Коченовские чтения «Психология и право в современной России». Сборник тезисов участников Всероссийской конференции по юридической психологии с международным участием. М.: МГППУ, 2020. – С. 107-108.



4. Варга А. Домашнее насилие. // «Трудные взрослые – трудные дети». О домашнем насилии и подростковых правонарушениях. – Москва: Издательский дом «Самокат», 2014. Стр.82-83.
5. Green 1988, 1995 n Kaplan 1983.
6. https://uza.uz/uz/posts/ozbekistonliklar-21-25-yoshni-oila-qurishga-eng-yaxshi-yosh-deb-hisoblashadi_267440 (murojaat vaqti: 11.02.2023-y.)
7. Zakirova A.G., Abdurasulova Q.R. Xotin-qizlarning zo'rvonlikdan jabrlanishining sabablari va uning oldini olish // "Yangi O'zbekiston oiladagi zo'rvonlikka qarshi: holat, muammo va yechimlar" mavzusidagi xalqaro anjuman materiallari to'plami. – Toshkent: "Mahalla va oila" nashriyoti, 2022. – 76-85-betlar.
8. Товбоева М.С. Оиладаги низоларга деспотизмнинг психологик таъсири // Оила институтини мустахкамлашнинг долзарб масалалари: миллий ва хорижий тажриба // "Маҳалла ва оила" илмий-тадқиқот институти. – Тошкент, 2021. – 187-190-бетлар.
9. Нарбаева Т.К. Оилавий зўравонликнинг келиб чиқиш сабаблари ва уни бартараф этишнинг инновацион механизмлари // "Маҳалла ва оила" илмий-тадқиқот институти. – Тошкент, 2021. – 4-9-бетлар.
10. Berkowits L. (1993). Aggression: Its causes, consequences, and control. Philadelphia, PA: Temple University Press.
11. Tedeschi J.T. & Felson R.B. (1994). Violence, aggression, and coercive actions. Washington DC: American Psychological Association.